

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



**BUXORO
DAVLAT
UNIVERSITETI**



"TASDIQLAYMAN"

Buxoro davlat universiteti

rektor

O.Xamidov

2023__y

Islom manbashunosligi

FAN DASTURI

Bilim sohasi: 200000 – San'at va gumanitar soha

Ta'lim sohasi: 220000-Gumanitar fanlar

Ta'lim yo'nalishi: 60220300 – Tarix (Islom tarixi va manbashunosligi)

BUXORO 2023

| | | | | |
|-----------------------------------|---------------------------------|---|---------------------------------------|----------------------------|
| Fan/modul kodi ISM 1709 | O'quv yili 2026-2027 | Semestr 7.8 | ECTS-Kreditlar 9 | |
| Fan/modul turi Majburiy | Ta'lim tili O'zbek | | Haftadagi dars soatlari 4/5 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Islom tarixi va manbashunosligi | 120 | 150 | 270 |

I. Fanning mazmuni

Fanni o'qitishning maqsadi – talabalarda islom manbalari, ularning davrlarga bo'linishi, islom tarixi, fiqhi va shunga oid mavzular bo'yicha yaratilgan manbalar, asosan qo'lyozma manbalar haqida ma'lumot berish, jamiyatga nisbatan xizmatining mohiyati, ijtimoiy qimmat va ahamiyati haqida ilmiy tushunchalarni shakllantirish.

Fanni o'qitishning vazifalari – talabalarda yangi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish, mavjud nazariy bilimlar haqida ilmiy tasavvurga ega bo'lish, turli manbalarni tahlil qila olish, manbalar bilan ishlay olish, ularni o'qib, o'rganish, ik islom davrida va undan keyin yozilgan manbalarni mutolaa qilish, tafsir, hadis, fiqh, aqida, tarixiy manbalarni o'rganish, qo'lyozma toshbosma nashrlar, arabiy, forsiy, turkiy adabiyotlar, o'odob-axloqqa (didaktik) oid kitoblar haqida ma'lumotga ega bo'lish, Movarounnahrda yaratilgan manbalarni o'qib o'zlashtirish, shuningdek zamonaviy arabiy va forsiy nashrlar ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish, manbalarni tavsif qila olish. Bir so'z bilan aytganda, fandan islomga oid manbalarni o'qib o'rganish asosiy maqsad va vazifa etib belgilangan uchin kurs davomida seminarlarga katta urg'u beriladi. Shu bilan talabani manbalar bilan ishlashga yo'llash asosiy vazifa qilib belgilangan.

II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

1-Modul. Islom manbashunosligining asoslari

1-mavzu. Kirish. Fanning nazariy mashg'ulotlari mazmuni

Islom tarixi va Islom manbashunosligi fanining shakllanishi. Qo'lyozma va bosma manbalarning ilmi, fan, madaniyat, tarix va boshqa qator sohalaridagi katta ilmiy ahamiyati. Manbashunoslikning rivojlanish yo'llari: Nazariy manbashunoslik: yozma manbalarning vujudga kelishi qonuniyatlarini aniqlash, manbalarni tadqiq etishning ilmiy usullarini o'rganish va hakoza. Amaliy manbashunoslik: fond, arxiv, muzey, kutubxonalaridagi maqolarni to'plash,

saqlash, tavsiflash, tadqiqot uchun material sifatida tayyorlash. Islom manbashunosligi va uning o'ziga xos xususiyatlari. Fanning o'ziga xos xususiyatlari. Islom manbalarni davrlashtirish haqida. Islom manbalarning ikki davrga bo'linishi. Juhliya davri manbalar. Islom davri manbalar. Islom manbashunosligi manbashunoslik fanining tarkibiy qismi. Islom manbashunosligi tushunchasi haqida. Arab tilidagi qadimiy yozma yodgorliklar. Islom manbalarning yuzaga kelishi tarixi. Fanning vazifalari.

2-mavzu. Manbashunoslik fanining predmeti va vazifalari

Manbashunoslik fanining muhim tarmog'i Islom manbashunosligi hisoblanadi. Islom manbashunosligi fanining o'ziga xos xususiyatlari. Fanning tarixiy rivojlanish bosqichlari. Islom manbalarni davrlashtirish haqida. Juhliya davri manbalar. Islom davri manbalar. Islom manbashunosligi tushunchasi, maqsadi va vazifalari haqida.

3-mavzu. Juhliya davri manbalari tahlili

Manbalarning tarixiy davrlarga bo'linishi. Juhliya davri manbalari. «Kitob ul-ag'oniy» asari haqida ma'lumot.

2-Modul. Islom tarixi manbalari

4-mavzu. Qur'on karim islom manbashunosligining asosiy manbai

Qur'on karim tarixi. Qur'on matnining Abu Bakr, Umar hamda Usmon davridagi tarixi. Qur'onning qo'lyozma holda ko'chirilishi va targ'ishi. Qur'onning qo'lyozma nusxalari, uning O'zbekiston hamda jahon fondlaridagi nodir manbalari. Qur'onning bosma nashrlari, ularning o'ziga xosligi, manbashunoslik tahlili. Qur'onning zamonaviy nashrlari.

5-mavzu. Tafsiqlar islomshunoslik manbalari sifatida

Tafsir ilmi. Qur'on va tafsir. Tafsiqlar va ta'vil haqida. Hanafiy mazhabi va bu mazhabga oid tafsiqlar xususida. Abu Mansur al-Moturiidiyning «Taviloti ahlis-sunna» asari. Mahmud az-Zamaxshariy, Abu Lays as-Samarqandiy, Abul Barakat an-Nasafiy tafsiqlari. Turkiy va o'zbek tillaridagi tafsiqlar.

6-mavzu. Siyralar - islomshunoslikning muhim manbalari

Islom tarixida siyra turkumidagi manbalarning vujudga kelishi. Bu kabi asarlarni yozishga bo'lgan qiziqishning ortishi. Arab dunyosida bunday asarlarning yozilishi tarixi. Markaziy Osiyolik olimlar tomonidan bu turkumdagi manbalarning

yozilishi, Terniziyning "Shamoli Muhammadiya" asari. Hozirda ham bunday turdagi kitoblarning yozilishi.

7-mavzu. Hadis to'plamlari islomshunoslik manbalari sifatida

Hadislarning yozilishi tarixi. Hadislarda soxtalkning paydo bo'lishi. Sahih hadislarning vujudga kelishi. Olti (to'qqiz) hadis to'plamining yaratilishi. Imom al-Buxoriy ilmiy merosi. "Al-Jome' as-sahih" asari va uning manbashunoslik tahlili. Imom al-Muslin va uning "Al-Jome' as-sahih'i. Imom at-Terniziyning ilmiy merosi. «Kitobu as-Sunan» asari tahlili. Imom Abu Dovud «Kitob as-Sunan» asarining tahlili.

3-Modul. Aqoid va fiqh manbalari

8-mavzu. Islom aqidasi manbalari tahlili

Kalom ilmi haqida ma'lumot. Kalom ilmiga oid manbalarning ahmiyati. Imom al-Moturidiy va uning «Tavliot ahli sunna» hamda «Kitob at-tavhid» asarlari. Imom Abu Hanifaning «Fiqhul-akbar» asari haqida. Abul Mu'in Nasafiyning «Tabstratul adilia» va «Bahru Kalom» asarlari kalom ilmiga oid nodir manbalar. Abu Haf's an-Nasafiyning "Aqoid an-Nasafiy" va unga at-Tarfazoniy tomonidan yozilgan "Sharh aqoid an-Nasafiy" asarlari.

9-mavzu. Usul al-fiqh asarlarining islom manbashunosligida tutgan o'rni

Usul fiqh ilmining rivoji. Ushbu ilmga oid dastlabki asarlarning vujudga kelishi. Hanafiy mazhabiga oid usul fiqh asarlari. "Usul al-Bazdaviy", "Tanqih" va "Tavzih" asarlari, an-Nasafiyning "al-Manor" asari va unga yozilgan sharhlar.

10-mavzu. Furu' al-fiqh manbalari

Islom huquqi maktablarning shakllanishi. Ash-Shofe'iyning «Ar-Risola» asari birinchi fiqhiy manba. Abu Hanifaning fiqhiy qarashlari haqida. Burhoniddin Marg'inomiy va uning islom huquqshunosligida tutgan o'rni. «al-Hidoya» asari. «al-Hidoya»ning manbashunoslik tahlili, uning qo'lyozma nusxalari asarga yozilgan sharhlar tahlili. "Muxtasarl viqoya" va uning sharhlar.

11-mavzu. «Fatvolar» islom dinining asosiy manbalari sifatida

Islom dinida fatvo kitoblarning paydo bo'lishi. Bunday kitoblar musulmonlar hayotidagi ahmiyati. Mintaqalar bo'yicha fatovolar. Fatvo kitob to'plamlari: «al-Fatovo al-Bazzoziy», «al-Fatovo al-Hindiy», «Fatovo Qozixon», «al-Majalla al-ahkomiy». Zamonaviy favvo kitoblari. Fatovlar chiqaruvchi markazlar.

12-mavzu. Faroid ilmi manbalari

Faroid ilmining shakllanishi. Islom huquqining meros masalasi bilan bog'liq huquqiy normalari. Ushbu sohada yozilgan hanafiy mazhabiga oid asarlar. Sajovandiyning "ar-Risola fi-l-faroid" asari qo'lyozma nusxalari hamda unga bitilgan sharhlar tahlili.

Asosiy adabiyotlar:

1. Islom manbashunosligi: darslik / Z. Islomov, D. Maxsudov, J. Tohirov - T.: "Qagnus Media" nashriyoti, 2019. - 307 bet.
2. N. Nasrullayev. Manbashunoslik. Darslik. - Toshkent: Navro'z, 2020. - 420 b.
3. Islom manbashunosligi (o'quv qo'llanma) / Tuzuvchilar: Islomov Z., Soliyev A. Mas'ul muharrir: Zohidov Q. / - T.: TIU nashriyot-mabaa birlashmasi, 2013. 182 b.
4. Manbashunoslik: Bakalavriat ta'lim yo'nalishlari uchun darslik / Madraimov A., Fuzailova G. - T.: O'zbekiston faylasufiari milliy jamiyati nashriyoti, 2008. - 264 b.
5. Qo'lyozmalar katalogi. - T.: Toshkent islom universiteti nashriyot-mabaa birlashmasi, 2012.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Abu-l-Faraj al-Isfahoniy «Kitobu-l-agi'oniy». T. I-XX. Bayrut. 2005.
2. Abdu-r-Rahmon bin Xaldun. Muqaddamat ibn Xaldun. Beyrut. Doru-l-fikri-l-arabiy. 1997.
3. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil Buxoriy. Sahih. t. I-IV. Toshkent. Qomuslar Bosh tahririyati. 1997.
4. Abu Iso Muhammad at-Terniziy. Sunani Terniziy. t. I. Toshkent. Adolat. 1999.
5. Abu Lays as-Samarqandiy. Bahru-l-ulum. t. I-III. Bayrut. Doru-kuubi-l-ilmiya. 1993.
6. Abu Lays as-Samarqandiy. Bahru-l-ulum. O'zRFA Sharqshunoslik instituti. Qo'lyozma.
7. Maqsudxo'ja ibn Mansurxo'ja. Majma' ul-Maqsud yoki Muxtasar ul-Viqoyaning o'zbekcha sharti t. I. T., «Adolat». 1996.
8. Muhammad Husayn az-Zahabiy. Al-tafsir va-l-Imufassiran. t. I-III. Qohira. Maktabatu-l-vahba. 1995.
9. Abdulhakim Sharfiy Jo'zjoni. Islom huquqshunosligi. Hanafiy mazhabi va O'rta Osiyo faqihlari. - T.: "Toshkent islom universiteti". 2002. - 256 b.
10. Axmedov B.A. Истори́ко-географическая лиге́ратура Средней Азии XV-XVIII вв. - T.: Фан, 1985.
11. Bosvort K. E. Musulmon sulolalari. - T.: Fan, 2007. - 271 b.
12. Bo'riyev. O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. - T., 1997.
13. Rahimov K. Movarounnahr tasavvufi tarixi. Akademnashr. - T. 2020

Internet saytlari:

1. www.gov.uz
2. www.religions.uz
3. www.iiu.uz
4. www.isesco.org
5. www.oic-oci.org
6. www.iclca.org
7. www.tarix.uz
8. www.ziyonet.uz
- www.history.ru

Fan dasturi Islom tarixi va manshunosligi, falsafa kafedrasining 2023 __yil
“__” __dagi “__”-sonli bayoni bilan tasdiqlangan.

| | |
|---|--|
| Tuzuvchi:  | Rajabova R. Islom tarixi vamanbashunosligi, falsafa kafedrasi o'qituvchisi |
| Taqirichi:  | Namozov B.B. Islom tarixi vamanbashunosligi, falsafa kafedrasi mudiri |

